ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Qo‘qon davlat universiteti magistratura bo‘limi o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti Sotvoldiyeva Go‘zalxon

Annotatsiya

Ushbu maqolada elektron ta’lim resurslarining mohiyati, turlari, didaktik imkoniyatlari hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning samarali usullari keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning tutgan o‘rni, elektron resurslardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, interaktiv metodlar, multimedia vositalari, pedagogik innovatsiya

Kirish

XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda axborot oqimining tezlashishi ta’lim tizimidan ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. An’anaviy ma’ruza va qog‘oz kitoblar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, ularning o‘rnini vizual va interaktiv elektron resurslar to‘ldirib bormoqda. Elektron ta’lim resurslari — bu nafaqat matn, balki audio, video, animatsiya va interaktiv testlarni o‘zida mujassam etgan murakkab pedagogik tizimdir. An’anaviy ta’lim shakllari o‘rnini bosqichma-bosqich zamonaviy, raqamli asosdagi ta’lim egallab bormoqda. Ayniqsa, elektron ta’lim resurslarining joriy etilishi o‘quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi.

Elektron ta’lim resurslari shunchaki darslikning raqamli nusxasi emas, balki axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning dinamik tizimidir. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlari, xususan, "Raqamli O‘zbekiston – ***2026" strategiyasi doirasida ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar*** har bir pedagogdan ushbu resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmasini talab etmoqda.

Muhokama va natijalar

Elektron ta’lim resurslari – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan o‘quv materiallari bo‘lib, ular matn, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlarni o‘z ichiga oladi. Elektron darsliklar, videodarslar, test tizimlari va virtual laboratoriyalar shular jumlasidandir. Mazkur resurslar o‘zining ko‘rgazmaliligi va interaktivligi bilan ajralib turadi. O‘quvchilar bilimni nafaqat eshitish, balki ko‘rish va amaliy bajarish orqali o‘zlashtiradi.

Elektron ta’lim resurslari yordamida dars jarayonini individuallashtirish mumkin. Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos ravishda bilim oladi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.O‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, elektron testlar va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari o‘qituvchining tekshirish ishlariga sarflaydigan vaqtini 40 foizgacha tejaydi. Natijada, pedagog dars davomida asosiy e’tiborni nazoratga emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o‘quvchilar bilan ijodiy muloqotga qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Elektron ta’lim resurslari tushunchasiga turli ta’riflarning berilishiga qaramasdan, ularning quyidagi umumiy tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) elektron ta’lim resurslari – bu o‘quv-metodik materiallardir;

2) elektron o’quv materiallari – bu AKTdan foydalanib yaratiladigan elektron ko‘rinishidagi ma’lumotlar jamlanmasidir;

3) elektron o’quv materiallari – bu didaktik vositadir;

4) elektron o’quv materiallari zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan

Inkluzivlik va ijtimoiy tenglikning ta’minlanishi:

Elektron resurslarning eng katta ijtimoiy natijasi — bu ta’limdagi geografik va moddiy chegaralarning buzilishidir. Muhokama jarayonida ko‘rildiki, chekka qishloqdagi talaba ham elektron ta’lim resurslari orqali poytaxtdagi nufuzli universitet o‘qituvchisining ma’ruzasini tinglashi yoki jahon kutubxonalaridan foydalanishi mumkin. Bu "inklyuziv ta’lim" tushunchasini kengaytirib, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ham uydan chiqmagan holda to‘laqonli bilim olish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda elektron ta’lim resurslaridan foydalanishda texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi va o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan ta’minlash, pedagoglarning malakasini oshirish hamda sifatli elektron resurslar bazasini yaratish kerak bo‘ladi.

Xulosa

Elektron ta’lim resurslari zamonaviy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Demak, ta’lim oluvchining elektron ta‘lim resurslari bilan o‘zaro harakatining turli formalaridan foydalanish spesifikasini elektron o‘quv materiallarining tipi aniqlaydi. Ushbu darajada, taqdim etiladigan axborotning turli-tumanligi individual topshiriqlardan foydalanish, mustaqil faoliyatni tashkil etilganligi hisobidan talabalar tomonidan topshiriqni bajarish bo‘yicha motivasiya kuchayadi. Ta’lim oluvchilar uchun elektron o‘quv materiallarini tanlashda o‘qituvchining roli muhim bo‘lsada, o‘qitishda asosiy rol o‘qituvchidan talabaga o‘tadi va bunday vaziyatda o‘qituvchi maslahatchi, tyutor vazifisini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref.dis. ped. fan. dok.-T.: 2007. -37 b.

2. Gadjiyeva P.D. Возможности информационно-коммуникативных электронных технологий обу- чения организации самостоятельной работы студентов // Дистанционное и вертуальное обучение. – 2013. – № 6. – С. 75–81.

3.Zavyalova O.A. Formirovaniye elementov informasionnoy kompetentnosti uchaщixsya na urokax s ispolzovaniyem Internet–resursov. Internet–jurnal «Eydos». – 2010. –S. 21-28.

4.Муллина Э.Р. Электронные образовательные ресурсы как средство

формирования профессио- нальных компетенция студентов// Международный журнал прикладных и фуцндаментальных иссле- дований. – 2016. – № 11-5. – С. 975-978.

5. Olimov Q.T. Ixtisoslik fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Ped. fan. dokt. diss. – T. 2005. – 286 b.

6.Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2012.

7.Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.

8.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

9.Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

10.Begimqulov U.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limda qo‘llash. – Toshkent, 2010.

11.UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris, 2011.